



Zulnura KARIMOVA,
Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti
E-mail: purelight16.09@gmail.com

REETING TRADITIONS IN CULTURES OF LANGUAGES WITH DIFFERENT SYSTEMS

Annotation

Greeting is considered the beginning of any communication, it reflects not only grammatical, but also cultural and social aspects of the language. This article analyzes the linguocultural characteristics of greeting expressions in languages of different systems, and examines greeting expressions used in Uzbek, English, Russian and French on the basis of examples, analyzing their role in the process of speech communication, their use in situations with a social role, and intercultural differences.

Key words: Linguoculture, interjection, greeting, intercultural communication, greeting expressions, language and culture.

ТРАДИЦИИ ПРИВЕТСТВИЯ В КУЛЬТУРАХ С РАЗНЫМИ ЯЗЫКОВЫМИ СИСТЕМАМИ

Аннотация

Приветствие считается началом любой коммуникации, оно отражает не только грамматические, но и культурно-социальные аспекты языка. В данной статье анализируются лингвокультурные особенности приветственных выражений в языках разных систем, а также на примерах рассматриваются приветственные выражения, используемые в узбекском, английском, русском и французском языках, анализируется их роль в процессе речевого общения, использование в ситуациях социальной роли и межкультурные различия.

Ключевые слова: Лингвокультура, междометие, приветствие, межкультурная коммуникация, приветственные выражения, язык и культура.

TURLI TIZIMDAGI TILLAR MADANIYATIDA SALOMLASHISH AN'ANALARI

Annotatsiya

Salomlashish – har qanday muloqotning boshlanishi hisoblanib, u tilning nafaqat grammatik, balki madaniy va ijtimoiy jihatlarini ham namoyon etadi. Ushbu maqolada turli tizimdagi tillarda salomlashish ifodalarining lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan hamda o'zbek, ingliz, rus va fransuz tillarida qo'llaniladigan salomlashish ifodalari misollar asosida o'rganilib, ularning nutqiy muloqot jarayonidagi o'rni, ijtimoiy rolga ega bo'lgan holatdagi qo'llanilishi hamda madaniyatlararo farqlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Lingvomadaniyat, buruq-xitob, salomlashish, madaniyatlararo muloqot, salomlashish ifodalari, til va madaniyat.

Kirish. Til – insoniyatning eng muhim ijtimoiy va madaniy hodisalaridan biri bo'lib, u orqali insolar o'zaro muloqotga kirishadi, fikr almashadi. Salomlashish muloqot jarayonida nutqning boshlanish bosqichi sifatida alohida o'rin tutadi. Har bir xalq va uning madaniyatida salomlashishning o'ziga xos turlari, nutqiy uslublari va ijtimoiy me'yorlari bo'lib, ular orqali nafaqat aloqa o'rnatiladi, balki hurmat, yaqinlik, ijtimoiy maqom va madaniy qadriyatlar ham namoyon bo'ladi. Salomlashish ifodalari lingvistik birlik sifatida faqat grammatik tuzilishi bilan emas, balki ularning pragmatik, sotsiolingvistik hamda lingvomadaniy jihatlarini bilan ham ahamiyatlidir. Shuningdek, salomlashish kabi nutqiy etiket ifodalarining o'xshash va tilga xos xususiyatlarini aniqlash va madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyatini yoritish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Asosiy qism. Turli tizimli tillarda taklif-xitob so'zlarni ifodalashda qo'llanuvchi nutqiy etiket ifoda shakllari ham kommunikantlar o'rtasida muloqotning

shakllanishida muhim o'rin tutadi. "Nutqiy etiket individual madaniyat, qadriyatlarga ko'ra anglashiluvchi tushunchadir. Insonda nutqiy etiket atrof muhit, oila va jamiyatdagi vaziyat hamda boshqa omillar ta'sirida bolalikdan shakllana boradi. Turli millatlarda nutqiy etiket shu millatning o'ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi tabiiy". [1] Har bir millat nutq madaniyatining salomlashish odob-ahloqiga xos bo'lgan nutqiy etiket ifodalari mavjud bo'lib, bular orqali kommunikantlarning bir-biriga bo'lgan hurmat-ehtiromi va e'tibori anglashiladi. Masalan, o'zbek tilida Assalomu allaykum! Salom!; ingliz tilida Hello! Good morning!; rus tilida Здравствуйте! Привет! fransuz tilida Bonjour! Salut! kabi etiket ifodalari samimiy munosabatlarni ifodalaydi. Bunday hissiy etiket ko'rinishlari vazifa jihatidan o'xshasa ham, konkret ma'nolari va strukturasiga ko'ra o'zaro farq qiladi. Masalan, o'zbek tili muloqot madaniyatida Assalomu alaykum iborasi, aslida, arab tilidan kirib kelgan bo'lib,

“sizga tinchlik tilayman” semasiga ega. Shuningdek, unga javoban, “Va alaykum assalom” deb salomga alik olishlik o'zbek tili egalari salomlashish odob-ahloqiga mos an'ana hisoblanadi. Bunday salomlashish uslubi nafaqat o'zbek xalqi muloqot madaniyatida, balki butun musulmon ahli o'rtasida keng qo'llaniladi.

– Assalomu alaykum, Shokir aka, – qo'lini havoga cho'zdi kuyov.

– Va alaykum assalom, – so'qir kuyovning qo'lini olib salomlashdi Shokir. (N.Abbosxon) Misolda keltirilgan salom-alik ifoda shakli o'zbek tili so'zlashuvchilarining kundalik nutqiy muloqotida keng qo'llaniladi. Biroq islomiy insonlar salomlashishning to'liq shaklidan foydalanadilar, ya'ni - Assalomu alaykum va rahmatullohi va barakatuh. – Va alaykum assalom rahmatullohi va barakatuh. Masalan,

– Assalomu alaykum va rahmatullohi va barokatuh, onajon!

– Va alaykum assalom va rahmatullohi va barokatuh, kel qizim, – dedi ayol ishini to'xtatib va menga jilmaydi. (A.Malik)

Bu salomlashish usuli musulmon diniga mansub insonlarga xos an'ana sanaladi. Salomlashish odoblari haqida Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf quyidagi qoidalarini tushuntiradi: “Agar “Salomga javob berish odobi qaysi?” deb so'rasalar, “Buning yettita sharti bor”, deb ayt. Birinchidan, salomga xursand bo'lib alik olish. Ikkinchidan, salom berganga “Rahmat”, deyish. Uchinchidan, Islom millatiga mansub bo'lmagan odam salom bersa ham alik olish. To'rtinchidan, salomga alik oluvchining ham tahoratli, pok bo'lishi. Beshinchidan, ko'p kishi turgan bo'lsa, oralaridan bir odam salomga javob qaytarsa kifoyaligi. Oltinchidan, salomga ishorat yoki imo bilan emas, ovoz chiqarib alik olish. Yettinchidan, salomga alik olganda salom bergan kishining eshitishi zarurligi” [2].

Shuni ham ta'kidlash lozimki, nutqda salomlashish odob-ahloqiga rioya qilinmaslik holatlari ham tez-tez uchraydi turadi. Masalan,

1. – Assalomu alaykum!

– Vaalay... Nima gap? – Mirazim qo'zg'alib, yostiqni qo'ltig'i ostiga tiqqan ko'yi yonboshladi. (U.Hamdani)

2. – Assomaykum, Bek aka, tinchmisiz, omonmisiz, yangam...

Asadbek uning gapini shart bo'ldi. (T.Malik)

3. – Salomaleykum.

Notanish odam menga karadi-da, boshimdan-oyog'imgacha kuz yugurtirib chiqdi. U qirg'iz bashara, lekin qoshlari quyuk, qirg'iz yoshlardan oshgan, bakuvvat kishi edi.

– Aalekum. (Sh.Xolmirzayev)

4. – Assalo'-o'm, – deya dimog'ida salom bergan bo'ldi ayol.

Bekqul To'raqulovich aybdorgina iljayib bosh irg'adi:

– Biz keldik. (L.Bo'rixon)

Yuqorida berilgan misollarda salom berish va alik olishda nutqiy buzilishlar ya'ni suxbat boshlanishida kommunikantlarning salom-alik shakllarini to'g'ri qo'llamaganligi kuzatiladi.

O'zbek muloqot madaniyatida salomlashish odob-axloqi to'g'risida Tohir Malikning “Odamiylik mulki” kitobida ham shunday fikrlarni uchratamiz: “Ba'zi birovlar “Assalomu alaykum”, deb to'liq aytishga erinibmi, “salom” yoki “salomaleykum” yoki “somaykum” tarzida ifoda etadilarki, bu g'oyat xunuk odobdir va tovushlarning buzilishi teskari ma'no anglatib qo'yishi mumkin. Masalan, “as-somu alaykum” deyilsa “sizga o'lim bo'lsin!” degan ma'no kelib chiqadi.” [3]

Turli tillar muloqot madaniyatida o'ziga xos salomlashish ifodalari mavjud. Masalan, ingliz tilida: asosiy salomlashuv turi: Hello! Hi!; kun vaqtlariga qarab: Good morning! Good afternoon! Good evening!; Good Day! ba'zi rasmiy yoki prezintatsiya boshlanishida tantanavor salomlashish: Greetings! Greetings and solutations!; Shuningdek, birinchi marta uchrashib turgan insonlar bir-biri bilan “How do you do?” deb salomlashadi. Bu ham rasmiy salomlashuv hisoblanadi, lekin har doim ham qo'llanavermaydi. Biroq bu salomlashuv turlari Assalomu alaykum ifodasi bilan vazifadosh bo'lsa-da, bevosita muqobili bo'la olmaydi.

“Good morning, sir.”

“Good morning. What's this thing?” (“Хайрли тонг, жаноб.” “Хайрли тонг. Бу нарса нима?”) (G.Orwell) Misoldagi Good morning salomlashuv turi ertalabdan tush paytigacha bo'lgan vaqt oralig'ida qo'llanadi. O'zbek tilidagi muqobili – Hayrli tong. O'zbek tili muloqotidagi Assalomu alaykum ifodasi bilan bevosita muqobil bo'lmasa-da, uning o'rnida qo'llasa bo'ladi. Shu o'rinda shuni ham ta'kidlash lozimki, salomlashish turlarining o'zi ham har xil ko'rinishga ega. Masalan,

“Morning!” said Mr. Weasley brightly.

“Morning,” said the Muggle. (J.K. Rowling) Misolda keltirilganidek, ingliz muloqotida “Good morning” o'rniga “Morning!” so'zini qo'llash ham, ayniqsa, norasmiy vaziyatlarda keng tarqalgan salomlashish shakli sanaladi. Bu soddalashtirilgan shakl do'stlar, oila a'zolari yoki yaqin tanishlarga nisbatan qo'llanadi.

“Ah, Fudge,” said Mr. Malfoy, holding out his hand as he reached the Minister of Magic. “How are you? I don't think you've met my wife, Narcissa? Or our son, Draco?”

“How do you do, how do you do?” said Fudge, smiling and bowing to Mrs. Malfoy. (J.Rowling) Ushbu misolda janob Fadj Narsissa xonim va Drako bilan birinchi marta uchrashib turganligi, shu bilan birga mansabdor shaxs bo'lganligi uchun “How do you do” deb salomlashgani kuzatiladi. Ingliz madaniyatida bu ifoda birinchi marta uchrashib turgan shaxslarga nisbatan ishlatiladi va salomlashishni ifodalaydi. Bu jumlaning takror aytilishi inglizlar madaniyatida hurmat-ehtirotni kuchaytirishni anglatadi. Ko'rinib turibdiki, yuqori mansabli kommunikantlar o'rtasida rasmiy salomlashuv muhim hisoblanib, o'zaro hurmat, hulq-atvor va salomlashuv odob-ahloqiga rioya qilgan holda munosabat o'rnatilgan.

Rus tilida: ko'pchilikka, katta yoshdagilarga nisbatan yoki rasmiy holatlarda: Здравствуйте!;

norasmiy salomlashuv: Привет!; kun qismlariga qarab: Доброе утро! Добрый ден! Добрый вечер!; yaqin tanishlar yoki do'stlar orasida, norasmiy: Здорово! Bu salomlashuv turlari orasida Assalomu alaykum iborasiga eng yaqin muqobil Здравствуйте! ifodasi bo'lib, uning ma'nosida sog'lik tushunchasi mavjud. Aniqrog'i, rus xalqi madaniyatida sog'lik tilash, ya'ni "Sog' bo'ling" yoki "Sizga sog'lik tilayman" ma'nosiga ega. "Здравствуй" shakli esa, "Sog' bo'l" degani bo'lib, tengdoshlar va yaqin tanishlar o'rtasida, ortiqcha rasmiyatchiliksiz yakka shaxsga nisbatan qo'llanadi. Masalan,

Однажды, когда удалось нам как-то рассеять и прогнать довольно густую толпу, наехал я на казака, отставшего от своих товарищей; я готов был уже ударить его своею турецкою саблею, как вдруг он снял шапку и закричал: "Здравствуйте, Петр Андреич! Как вас бог милует?"

Я взглянул и узнал нашего урядника. Я несказанно ему обрадовался "Здравствуй, Максимыч, – сказал я ему. – Давно ли из Белогорской?" (А.С.Пушкин) Misolda yaqin munosabatlar asosida salomlashuv jarayoni ko'rsatilgan. "Здравствуйте madaniyat nuqtayi nazardan hurmatni ifodalasa, "Здравствуй" orqali esa, yaqin munosabat ifodalangan. Aniqrog'i, katta va kichik o'rtasidagi salomlashish orqali hurmat va yaqinlik o'rtasidagi lingvokulturologik farq ko'rsatib berilgan.

Fransuz tilida muloqot madaniyatida ham boshqa tillar kabi salomlashish darajasi vaziyatga qarab o'zgarib turadi. Masalan, rasmiy va norasmiy asosiy salomlashish turi, asosan kunning birinchi yarmida: Bonjour!; kunning ikkinchi yarmida: Bonsour!; norasmiy holatlarda, kunning istalgan vaqtlarida: Salut! kabi salomlashish ifodalari mavjud. Bonsour! o'zbek tilidagi Assalomu alaykum ifodasini o'rnida ishlatilsa-da, bevosita muqobili bo'la olmaydi. Ya'ni, Assalomu alaykumning ma'nosini to'la bera olmaydi. Bonsour! Hayrli kun! yoki Salom! ifodalari bilan muqobil bo'la oladi. Bu salom turlari bilan ko'pincha suxbatdosh ismi qo'shib aytilishi kuzatiladi. Masalan,

– Bonjour, Denis, dit-il à son contremaître qui le saluait, au bras d'une jolie brune d'une trentaine d'années, au ventre rebondi.

– Bonjour, monsieur, c'est gentil à vous de donner cette fête comme le faisait votre papa, avança son employé. (– Salom, Denis, – dedi u, o'ttiz yoshlar chamasidagi qorni qappaygan (qoramag'iz) bug'doyrang chiroyli ayolning qo'lidan tutib, u bilan salomlashayotgan ustasiga. – Salom, janob, – dedi ishchisi iliq tabassum bilan. – Bu bayramni otangiz qilganidek siz ham uyushtirganingiz juda ham quvonarli) (M.B. Dupuy)

Salut ham Salom degani bo'lib, bu ifoda kunning istalgan vaqtida qarindoshlar, do'stlar yoki oila a'zolariga nisbatan qo'llanadi:

Il décroche à la première sonnerie.

– Salut, mon cœur.

– Salut, ma puce. Comment tu vas ? (U telefon jiringlashiga go'shakni ko'tardi. – Salom, jonim. – Salom, azizim. Ahvoling yaxshimi?) (V.Crimaldi)

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida asosiy salomlashish turi Assalomu alaykum va unga javob Va alaykum assalom shaklida bo'lsa, ingliz, rus va fransuz tili egalari muloqotida esa, salom va unga alik olish ham bir xil ko'rinishga egaligi bilan farqlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, salomlashish nutqiy etiket birliklari har qanday tilda aloqa o'rnatishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida turli tizimdagi o'zbek, ingliz, rus va fransuz tillarida salomlashishning pragmatik xususiyatlari tahlil qilinar ekan, bu birliklarning nafaqat tilshunoslik, balki lingvomadaniy jihatdan ham chuqur mazmunga ega ekani anglashiladi. Turli tillardagi bu ifodalar orqali kommunikantlar o'zaro munosabatini belgilaydi, hurmat, yaqinlik yoki masofa kabi tuyg'ularni ifoda etadi. Bundan tashqari, salomlashish shakllarining qo'llanishi ko'pincha suxbatdoshning jamiyatdagi ijtimoiy roli, yoshi, maqomi va vaziyatga bog'liq holda belgilanadi.

Keltirilgan qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, salomlashishning shakli va qo'llanishi har bir til va madaniyatda o'ziga xoslik kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Турдиева Х.К. Нуткий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи (форс ва ўзбек тилларидаги материаллар асосида): Филол.фан.бўйича фалс.д-ри (PhD) дисс. Тошкент, 2020. - Б.13.
2. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. "Ижтимоий одоблар". «Hilol-Nashr» нашриёт матбааси. 2024 йил. – 456 б.
3. Малик Т. Одабийлик мулки (Ахлоқ китоби). www.tohirmalik.co